



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Hamroyeva Oynisa Farxod qizi

Hamroyeva Oynisa Farxod qizi
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompetentlik, talabalarni kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodlari, kompetentlik turlari haqida fikirlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: metod, kommunikativ kompetentlik, bo'lajak o'qituvch, muloqot, o'z-o'zini anglash.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o'ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z to'g'ri munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirdor bo'lmog'i lozim. O'quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so'zsiz o'qituvchiga, uning o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri boshqara olishiga va o'quvchilar bilan o'mnata oladigan muomala va munosabatlariga bog'liq.

Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus ko'rinishga ega bo'lgan muloqotga qobiliyatilikdir.

Oliy ta'lrim muassasasi talabalarining kommunikativ kompetentligini shakllantirish muvaffaqiyati, ma'lum bir dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning "ko'zini" biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir.

Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi: 1) insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlarini,



motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish, yuz, qo'l, gavda harakatlarini "o'qish" ko'nikmasi) 2) insonni o'z-o'zini anglay olishi (o'z bilimi, qobiliyati, o'z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko'zi bilan baholash); 3) muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ko'nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo'lish belgilari haqida ko'proq axborotlarni ajarata olish, ularga e'tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholash).

Talabalarning komunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun avvalo ularda ko'nikma va malakalar shakllantirish talab etiladi. Talabalarning mavjud qobiliyatları asosida komunikativ qobiliyatlarini yuzaga chiqarish bilan ko'zga tashlanadi.

Komunikativ kompetensiyaning asosi pedagogik ta'sir ko'rsatishdir. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Talab – ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. O'quvchining u yoki bu xatti-harakati o'qituvchi nazoratida bo'lib, ijobiy jihatlari rag'batlantirib boriladi yoki aksincha nojo'ya xatti-harakati to'xtatib qo'yiladi.

Istiqbol – ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoyon bo'ladi. Ushbu usul mакtab o'quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

Rag'batlantirish va jazolash – tarbiyaviy ta'sirning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat va xatti-harakat, axloqiy hislat, topshiriqlarning so'zsiz bajarilishi uchun o'quvchi rag'batlantiriladi. Nomaqbol xatti-harakat, tartibbuzarlik, o'z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi, uni qo'llash jarayonida o'qituvchidan nihoyatda ehtiyojkorlik, sezgirlik va hushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli bo'lib, o'quvchilarining ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma'lum bir yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'quvchilarining bir-birlariga do'stona munosabatini shakllantiradi.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik nazariyasi va pedagogik tajribalarini o'rghanish pedagogik ta'sir etishda ikki metod: ishontirish va uqtirishdan keng foydalanish lozimligini ko'rsatadi.

Ishontirish - o'quvchilarga xatti-harakatlarning to'g'riliği va zarurligini, shuningdek, ayrim xulq-atvorlarning noto'g'riliğini tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida o'quvchilarda yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bular esa o'quvchilar va ularning atrofidagilar uchun me'yor (mezon) bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchining har qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, oqibat natijada o'quvchi ruhiyatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga, ya'ni o'quvchilarda ijobiy hissiyotlarni: xulq-atvor, munosabatlar, xatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlashga yo'nalgan bo'ladi. Lekin ishontirish va uqtirishning texnologik mexanizmlari turlichadir.

O'sib borayotgan yoshlar ijtimoiy muhit va tabiat bilan ham o'zaro ta'sirlanadilar. Bu o'zaro ta'sir natijasida ularda ishonch, yangi bilimlar va munosabatlar, axloqiy me'yorlar majmui vujudga keladi.



Ta'limiy mazmundan, vaziyatdan, holatdan kelib chiqib, har qanday o'qituvchining maqsadi auditoriyada "Rivojlantiruvchi muhitni" yaratishdan iborat. Ya'ni: - talabalarga faoliyatga undovchi motivatsiya berish; - talabalarni mustaqil ishlatish, o'quv faoliyatiga undash orqali tushuncha, tasavvur va ko'nikmalarni shakllantirish.

Kerakli ma'lumotlarni qidirish, o'z faoliyati loyihasi va uning amaliyotga tatbiq etish, ish maqsadini anglash va natijaga ma'suliyat bilan yondashish;

Kerakli ma'lumotlarni qidirish, o'z faoliyati loyihasi va uning amaliyotga tatbiq etish, ish maqsadini anglash va natijaga ma'suliyat bilan yondashish;

-talabalar tomonidan mavzuni, maqsad, vazifalarini murakkablik darajasini, shakl va usullarni mustaqil ravishda tanlash;

-talabalarni loyiha ustida guruhlarda ishslashga o'rgatish mavzu va muammolarni aniqlash, vazifalarni taqsimlash, rejalashtirish, bahs-munozara natijalarini muhokama qilish va baholash;

-talabalarni turli xil shakldagi munozaralardagi ishtiropi;

- talabalarni turli xil shakldagi munozaralardagi ishtiropi;

-talabalarda o'z harakatlarini tartibga solishni shakllantirish;

- baholash tizimi orqali talabalar o'z bo'lg'usi natijalarini takomillashtirish, o'z darajalariga va natijalariga baho berib, ularni yanada takomillashuviga erishish.

Xulosa qilib aytganda ushbu metodlar asosida pedagogik faoliyat olib borish o'qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlardan biri bo'lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O'qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so'z qudratini takomillashtirib boradi. U o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so'z boyligini go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Zero, go'zal va ta'sirchan so'zlay bilish ham san'at. Bu san'atdan bebahra bo'lgan o'qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o'qitishdan qat'iy nazar, o'qituvchining asosiy quroli so'z boyligidir, u so'z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Abdullayeva, D.I.Ro'ziyeva. Pedagogik diagnostika va korreksiya.Darslik. - T.: Fan va texnologiyalar, 2019.
2. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
3. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Approaches to Preparing Future Teachers for the Organization of Cognitive Processes in General Secondary Schools. *Miasto Przyszlosci*, 29, 6-7.
4. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Future Teachers' Specific Characteristics of Development of Cognitive Acceptance of Professional Knowledge. *Miasto Przyszlosci*, 29, 1-2.
5. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). PEDAGOGICAL BASIS OF THE USE OF UNIVERSAL AND NATIONAL VALUES IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
6. Okhunova, D. K. (2022, October). APPROACHES TO EXPANDING THE POSSIBILITIES OF COGNITIVE ACCEPTANCE OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE OF FUTURE TEACHERS. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 1, No. 5, pp. 26-32).



7. Oxunova, D. (2022). O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(2), 870-876.
8. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 22(12), 127.
9. Shuxratjon, M. S. A. S. M. (2022). BO 'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 1(5), 177-180.
10. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In *Конференции*.
11. SUMMATIV, O. Q. B. F. V., & MEXANIZMLARI, B. DQ Oxunova–Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi. *FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI*, 423.
12. Urinova, N., & Abdullaeva, N. (2020). Opportunities for formulating research skills for higher education students. *Молодой ученый*, (11), 193-195.
13. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
14. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Баҳтиёр Сайдкулович, Джалалов Баҳромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
15. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
16. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). PEDAGOGICAL BASES OF HARMONIOUS EDUCATION OF STUDENTS. *Учёный XXI века*, (5-1 (18)), 42-45.
17. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИЧНОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ. *Ученый XXI века*, (5-1), 45.
18. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 80-83.
19. <https://inlibrary.uz/index.php/carjis/article/view/5691>